

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

XASANOV AXMAD ISA O'G'LI

**SADRIDDIN AYNIY “SUDXO‘RNING O‘LIMI” POVESTI
TERMINLARINING TARKIBIY-MAZMUNYIY TAHLILI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Xasanov Ahmad Isa o'g'li

Sadriddin Ayniy "Sudxo'ring o'limi" povesti terminlarining tarkibiy-mazmuniy tahlili..... 3

Хасанов Ахмад Иса угли

Структурно-содержательный анализ терминов повести Садриддина Айни «Смерть ростовщика» 23

Khasanov Ahmad Isa ugli

Structural and meaningful analysis of the terms of Sadriddin Aini's story "Death of a Usurer" 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 50

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

XASANOV AXMAD ISA O'G'LI

**SADRIDDIN AYNIY "SUDXO'RNING O'LIMI" POVESTI
TERMINLARINING TARKIBIY-MAZMUNYIY TAHLILI**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2852 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzayev Ibodulla Kamolovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Dadaboyev Hamidulla Aripovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "23" oktabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, bosh o'quv binosi, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (115 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: 239-11-40; 239-18-92 faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "29" sentabr kuni tarqatildi.
(2023-yil "29" sentabr dagi 6 raqamli reyestr bayonnomasi).



J.D.Eltazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

Sh.S.Mahmadiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

D.B.Urinbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida keyingi yillarda terminologik leksika va uning badiiy matnda qo'llanish xususiyatlarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Termin va uning lisoniy maqomi, terminologiya sohasi taraqqiyoti hamisha tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Terminlarning badiiy asarlarda qo'llanish darajasini tahlil etish hamda ularning lisoniy tabiati, etimologiyasi, yasaliş usullari, leksik-semantik xususiyatlari, paradigmatic munosabatlari jahon tilshunosligining asosiy masalalaridan biriga aylangan. Shu bilan birga muayyan terminologik tizimda termin va lug'aviy birliklarning uzviy ravishda munosabatda bo'lishi hamda uning ichki mohiyatini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida yozuvchilarning badiiy asarda terminologik leksikaga murojaat qilishlari natijasida terminologiya sohasiga oid ilmiy bilimlar jadal rivojlanmoqda. Natijada professional-texnik nutq va adabiy til, hududiy va ijtimoiy dialektlar va adabiy til ko'rinishidagi o'zaro ta'sir terminologiyada yuzaga kelayotgan muayyan masalalarni hal etishga ko'maklashdi. Xususan, yozuvchilar badiiy asarlarida qo'llangan terminlarining hosil bo'lishi, ularning semantik, struktur xususiyatlarini o'rganish, sohaga oid terminlarni tartibga solish, tilning ichki omillar hisobiga boyib borish imkoniyatlarini ochib berish, o'zlashgan terminlarning milliy terminologik tizimga ta'sirini aniqlash, sintagmatik jihatdan murakkab tarkibli terminlarning hosil bo'lishi yuzasidan aniq ilmiy xulosalarga kelish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mustaqillikdan keyingi yillarda milliy qadriyatlarimiz, xususan, badiiy asarlar tilining terminologiyasini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, yozuvchilarimiz asarlarida qo'llangan terminlarni izohlash, ularni lingvomadaniy tadqiq etish kabi masalalarning yechimini topish o'zbek tilshunosligining ilmiy asoslarini ishlab chiqishni va shu soha terminologiyasini tartibga solishni taqozo etadi. Chunki "Globalashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi"¹. Shu nuqtayi nazardan badiiy asarda muallif nutqi orqali terminlardan foydalanishida, asar qahramonlarining nutqini individuallashtirishda hamda obraz qiyofasini kitobxon ko'z o'ngida to'laonli gavdalantirishda, yozuvchi nutqining badiiy asar qahramoni xarakteri va psixologik holatini yoritishda terminlarning ahamiyatini o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari va 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи //Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь.

ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4497-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida ham badiiy asarlar tilida qo'llangan terminlar tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Xususan, N.P.Razdorova, E.Fink, E.N.Tolkina, A.N.Kojin, L.A.Turkina, N.N.Bogacheva, N.M.Orlova, V.V.Parsheva, L.N.Churilina, E.A.Panayeva, D.A.Rozarenov, Y.B.Jidkova kabi tadqiqotchilar badiiy asarlar tilida qo'llangan terminlarning uslubiy, leksik-semantik, struktur xususiyatlarini ma'lum bir badiiy uslubga oid asarlar misolida tadqiq etgan².

O'zbek tilshunosligida terminlarning badiiy matnda qo'llanish xususiyatlarini o'rganish H.Shamsiddinov tomonidan boshlab berilgani ma'lum. Olim terminning badiiy nutqdagi nominativ-uslubiy vazifasi hamda uning matn doirasida qo'llanish xususiyatlari masalasiga asosiy e'tibor qaratgan³. Keyinchalik XI-XV asrlarga tegishli turkiy yozma yodgorliklar tilida qo'llangan terminlar H.Dadaboyev, A.Navoiy asarlarida qo'llangan musiqiy terminlar S.Azizov, A.Navoiyning "Majolis un-nafois" saridagi ijtimoiy-siyosiy leksika Z.Isaqova, harbiy terminlarning sinxron tadqiqi H.Yodgorov, Y.X.Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida qo'llangan ijtimoiy terminlar U.Sanaqulov, T.Malikning "Shaytanat"

² Раздорова Н.П. Специальная лексика в произведениях К.Г.Паустовского «Повесть о лесах» и «Рождение моря». В кн.: Ученые записки Латвийского университета. Т. XXV, вып. 3. – Рига, 1958; Финк Э. Стилистическое использование терминологической лексики в романе Л.Леонова «Скутаревский». В кн.: Ученые записки Куйбышевского пединститута. Вып. 37. – Куйбышев, 1962; Толикина Е.Н. Термин в литературном языке. В кн.: Нормы современного русского литературного словоупотребления. – Л., 1966; Кожин А.Н. Военные термины в художественной речи. Русская речь. 1972, №1, – С. 28-33; Прохорова В.Н. Образование специальной терминологии в современном русском языке. – М., 1967; Туркина Л.А. Термины точных наук их стилистическое употребление в современной поэзии. В кн.: Исследование языка художественных произведений. – Куйбышев, 1975; Благова Н.Г. Научно-технические термины в современной художественной и публицистической речи. АКД. – Л., 1976; Бочегова Н.Н. Стилистическая функция терминов в контексте художественного произведения: дис. канд. филол. наук. – Л., 1978; Орлова Н.М. Функционирование морской лексики в тексте художественной литературы (XIX-XX вв.). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1984. – 17 с.; Паршева В.В. Соотношение книжных и разговорных лексических элементов в структуре художественного текста (на материале произведений Н.С.Лескова 90-х годов XIX в.): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1984. – 22 с.; Чурилина Л.Н. Антропоцентризм художественного текста как принцип организации его лексической структуры: дисс... док. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2002. – С. 4; Панаева Е.А. Функции специальной лексики в художественном тексте: (на материале произведений М.А.Булгакова): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2005. – 28 с.; Розаренов Д.А. Термин в современном художественном произведении (на материале английского языка): дисс... канд.филол.наук. – Тула, 2007; Жидкова Ю.Б. Функционирование медицинской терминологии в художественных произведениях русских писателей XIX-начала XXI веков: на материале прозы А.П.Чехова, В.В.Вересаева, М.А.Булгакова, Ю.П.Германа, В.П.Аксенова, Л.Е.Улицкой. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2008. – 17 с.

³ Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1984.

asarida qo‘llangan terminlar D.Jamoliddinova, T.Malikning “Saodat saroyi” asarida qo‘llangan terminlar Z.Raximovalar tomonidan dissertatsiya, monografiya va maqolalar ko‘rishida tadqiq etildi⁴. Mazkur tadqiqotlarda terminlar masalasiga muayyan bir yozuvchi va uning asarlari tili leksikasini tadqiq etish nuqtayi nazaridan yondashildi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matnda terminlarning antropotsentrik, lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari ilk marta D.Jamoliddinova tomonidan atroflicha o‘rganildi⁵. Mazkur ishda terminlarni matn tarkibida tahlil qilish ularning matniy qurshovda namoyon bo‘luvchi semantik-struktur, mantiqiy va badiiy-estetik mohiyatini, boshqa nutq uslublariga xoslanish xususiyatlarini aniqlashga imkon yaratishi, shu sababli mazkur birliklarni faqat gap doirasida emas, matn doirasida ham o‘rganish maqsadga muvofiq ekanligi isbotlangan. Ammo tilshunosligimizda yozuvchi Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” povestida qo‘llangan terminlarning genetik, tarkibiy-mazmuniy tahlili, etimologiyasi, yasaliish tarkibi, siyosiy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohaga oid terminlar hamda ularning mavzu guruhlariga bo‘linishi maxsus o‘rganilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tili va adabiyoti ta’limining dolzarb masalalari” mavzusidagi amaliy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” povestida qo‘llangan terminlarning tarkibiy-mazmuniy hamda genetik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyoti masalasini yoritish, uning til sistemasida tutgan o‘rnini ochib berish;

badiiy asarlar tilida qo‘llangan terminlarning leksik-semantik xususiyatini mavzuiy guruhlarini aniqlashtirish orqali ilmiy tahlil qilish;

“Sudxo‘rning o‘limi” povestida qo‘llangan terminlarning etimologiyasini, genetik asoslarini belgilash;

povestda qo‘llangan terminlarning tarkibiy-mazmuniy tahlilini amalga oshirish, tub va yasama terminlarning hosil bo‘lish yo‘llarini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” povesti olindi.

⁴ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с; Азизов С.А. Музыкальные термины, использованные в произведениях А.Навои. Вопросы русской и узбекской филологии. – Ташкент, 1977; Ёдгоров Х. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи. Филол. фан. номз.дисс. ... автореф. – Тошкент, 1996. –26 б.; Исакова З. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз.дисс. ... автореф. – Тошкент, 2010. –24 б ; Холмонова З., Рахимова З. Бадий матнда терминларнинг ўхшатиш сифатида қўлланиши. (Т.Маликнинг “Саодат саройининг калити” асари мисолида). Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3 (1 Part 1), 147-150; Санакулов У. Юсуф Хос Ҳожиб асарларида қўлланган ижтимоий-сиёсий терминлар. Хорижий филология, №2, 2019; Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фан. бўйича фал. док. ... дис. автореф. – Тошкент, 2017. – 20 б.

⁵ Жамолиддинова Д. Бадий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри (DSc). дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 71 б.

Tadqiqotning predmetini Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” povesti terminlarining leksik-semantik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, sistem, tasniflash, leksik-semantik, struktur, komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jahon va o‘zbek terminologik tizimi termin, termin va so‘z birikmasi masalasiga oid yetakchi tendensiyalarga asoslanganligi, terminning badiiy matn qurshovidagi lingvistik maqomini belgilash lozim ekanligi dalillangan;

povestda qo‘llangan terminlarning tarkibiy, mazmuniy, uslubiy kabi funksional-semantik xususiyatlari aniqlanib, terminlarning nomlash tamoyiliga ega ekanligi povest tilidan olingan omonat, vasiqa, noib, tilmoch kabi terminlar orqali dalillangan;

povestda qo‘llangan o‘z qatlam va o‘zlashma qatlam terminlarining ichki va tashqi manbalar asosida hosil bo‘lishini tavsiflash orqali sistem, struktur-semantik usullari hamda genetik asoslari aniqlanib, tilimizga kirib kelishiga ta’sir etuvchi lingvistik va ekstalingvistik omillar isbotlangan;

“Sudxo‘rning o‘limi” povestida qo‘llangan affiksatsiya va kompozitsiya usulida yasalgan terminlarining grammatik-struktur xususiyatlari aniqlanib, struktur jihatdan sodda, qo‘shma, juft kabi termin shakllari badiiy matnda terminning poetik aktuallashish imkoniyatlarini ochib berishda yozuvchining ta’sirdorlik, emotsionallik, ekspressivlik kabi lingvopoetik maqsadi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

povestda qo‘llangan terminlarining til taraqqiyotidagi o‘rni, adabiy tilni boyitishga xizmat qilishi amaliy jihatdan asoslangan;

tadqiqotda to‘plangan mavjud terminologik materiallar, nazariy xulosalar o‘zbek tilshunosligi, leksikologiya va terminologiyani muayyan ilmiy xulosalar bilan boyitishi ochib berilgan;

povestda qo‘llangan terminlarni to‘plash, mavzuiy guruhlarini aniqlash, tartibga solish va unifikatsiyalashda tadqiqotning amaliy jihatdan ahamiyatli ekanligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, terminlarning semantik, struktur tadqiqida zamonaviy tahlil usullaridan foydalanilganligi, erishilgan natijalarning hamda terminlarni tartibga solish bo‘yicha berilgan tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilganligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati asarda qo‘llangan terminlarning semantik-struktur xususiyatlari, tilni boyitishidagi o‘rni bo‘yicha mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni boyitishga xizmat qilishi; terminlarning genetik asosini belgilash masalasi, terminlarning yasali xususiyatlari bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalaridan o‘zbek terminologiyasi bo‘yicha yaratilgan darslik, o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirishda, o‘zbek tilshunosligi magistratura ta’lim yo‘nalishida “Onomastika”, “Lingvistika” kabi tanlov fanlarini tashkil etishda, akademik

litseylar hamda ixtisoslashgan maktablar uchun o'zbek adabiy tilidan o'quv adabiyotlarini yaratishda foydalanish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sadriddin Ayniyning "Sudxo'ring o'limi" povestida qo'llangan terminlarning genetik asosini aniqlash, o'zlashma qatlam terminlarining qissada qo'llanish xususiyatlarini tadqiq etishda olingan ilmiy-nazariy natijalar asosida:

Jahon terminologik tizimida termin, termin va so'z, termin va so'z birikmasi masalasiga nazariy qarashlar orqali mustaqil yondashilgan fikrlardan; povestda qo'llangan o'zlashma qatlama oid ingliz, nemis, fransuz, italyan tillari terminlarining tashqi manbalar asosida hosil bo'lishining usullari, ularning genetik asosi oydinlashtirilgan o'rinlardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi 2014-2016-yillarga mo'ljallangan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" loyihasida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 6-apreldagi 919/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada terminlarning kelib chiqishi, shakllanishi, yasaliishi, o'zga tillardan o'zlashishi, terminologiyani boyish manbalarining batafsil tahlili bo'yicha olingan natijalar bilan takomillashtirilgan.

Povestda qo'llangan terminlarning funksional-semantik xususiyatlari aniqlangan, terminlarning muayyan tushunchani nomlash tamoyillari va mavzuviy guruhlar tahlilidan olingan ilmiy xulosalardan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 7-apreldagi 928/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada tillararo o'zaro aloqani ta'minlashda terminologiya sohasining alohida xizmatlarini qayd etish, har bir til tizimining katta qismini tashkil etuvchi terminlarni tartiblash, sistemalashtirish, axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordami bilan yozuvchi va shoirlar asarlarida qo'llangan terminlarning izohli lug'atlarini yaratish haqidagi fikrlar bilan takomillashtirilgan.

Povestda qo'llangan o'z qatlam va o'zlashgan qatlam terminlarining ichki va tashqi manbalar asosida hosil bo'lishining usullari aniqlanib, ularning genetik asosi oydinlashtirilgan o'rinlardan Xo'jand davlat universiteti tojik tili va adabiyoti kafedrasida xodimlarining ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari amaliyotida bevosita foydalanilmoqda (Xo'jand davlat universitetining 2023-yil 18-yanvardagi № 34-son ma'lumotnomasi). Natijada "Tojik-fors adabiyoti tarixi", "Adabiyot nazariyasi", "Tojik tili tarixi", "Matnshunoslik", "Madaniyatshunoslik" kurslari mazmuni yanada boyidi.

"Sudxo'ring o'limi" povestida qo'llangan yasama terminlarning yasaliish usullari o'rganilib, terminlarning struktur jihatdan sodda, qo'shma, juft kabi shakllarining tahlilidan chiqarilgan nazariy xulosalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Samarqand viloyati bo'limida o'tkazilgan yig'ilishlarda, davra suhbatlarida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyati bo'limining 2023-yil 5-apreldagi № 19-son ma'lumotnomasi). Natijada

badiiy asarlarda qoʻllangan terminlar orqali davr muhitini toʻla-toʻkis anglashda yozuvchi Sadridin Ayniyning “Sudxoʻrning oʻlimi” povesti yuzasidan chiqarilgan nazariy-ilmiy xulosalar muhim manba boʻlib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 8 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida maʼruza koʻrinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 14 ta ilmiy ish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta (3 ta respublika hamda 3 ta xorijiy jurnallarda) maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi “**Jahon va oʻzbek terminologiyasida soha terminlarining oʻrganilishi**” deb nomlangan. Bob uch boʻlimga ajratilgan. Birinchi boʻlim terminshunoslik ilmida *termin*, *atama*, *soʻz* tushunchasi va ular bilan bogʻliq qarashlar tahliliga bagʻishlangan. Mazkur boʻlimda jahon va oʻzbek tilshunoslik terminologiyasi ilmida termin, atama va terminosistemaga berilgan taʼriflar keltiriladi.

Soʻnggi yillarda tilshunoslikda sohaviy terminologiya masalalari qator tadqiqotlarning oʻrganish obykti boʻldi. Bu ishlarda “termin” tushunchasiga aniqlik kiritish, unga taʼrif berish masalasi ilgari surildi, terminlarning tilning lugʻat tarkibidagi oʻrni haqida turli qarashlar bildirildi. Birinchi qarashga koʻra terminlar adabiy til leksikasining mustaqil qatlami sifatida eʼtirof etilsa, ikkinchi qarashga muvofiq u adabiy tilning leksik qatlami tarkibida ajratildi, bu qatlamda “alohida turuvchi” obyekt tarzida baholandi va sheva, jargon kabilarga tenglashtirildi⁶.

Jahon tilshunosligida XVIII-XIX asrlardayoq terminologiya muammolari tadqiqiga, *termin* tushunchasining mazmun mohiyatini ochib berishga bagʻishlangan qator izlanishlar yuzaga kela boshlagan edi. Tilga funksional yondashuv tarafdorlari terminning nisbiylik xarakteri haqida fikr yuritib, terminologiya va umumisteʼmol leksikasi orasidagi chegaraning shartli ekanligini isbotlashga harakat qildilar. Biz ham ishda umumisteʼmol soʻzlari va terminlar oʻrtasidagi chegaraning shaffofligini eʼtirof etamiz.

⁶ Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. — Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. — Б.5.

Ma'lumki, termin ham boshqa leksik birliklar singari atash funksiyasiga ega. Termin – ilm-fan, texnikaning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasidir. Ushbu ta'rifga ko'ra va terminning funksional xususiyatiga muvofiq u qisqa, aniq va bir ma'noli bo'lishi, ilmiy tushunchani (ya'ni muayyan soha tushunchasini) ifodalay olish uchun xizmat qilishi kerak. Tilshunoslikda *termin*, *terminologiya*, *terminosistema* tushunchalari har jihatdan va turlicha tavsiflandi. Shunga qaramay, ayrim tilshunoslar, jumladan, K.Y.Averbux, B.N.Golovin, T.R.Kiyak, R.Y.Kobrin va boshqalar terminologiya bo'yicha olib borgan o'z tadqiqotlarida bu fanning asosiy tushunchalari bo'lmish *termin*, *terminologiya*, *terminosistemaning* aniq qayd qilingan ta'riflari yo'qligini ta'kidlashdi.

Terminologiya masalalari bo'yicha o'zbek tilshunosligida ham qator ishlar amalga oshirilgan. Bu ishlarda terminga ta'rif berilib, uning mohiyati, terminning umumiste'mol leksikasidan farqi ochib berilgan. Jumladan, I.Mirzayev terminga quyidagicha ta'rif bergan: "*Termin (lot. terminus – chegara, had) – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi. Termin umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o'tadi, binobarin, termin va umumiste'moldagi so'zlar bir-birini to'ldiradigan leksik birliklardir*"⁷.

O'zbek terminologiyasida o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab terminologiya masalalarini o'rganishga qiziqish yanada ortdi. U.Tursunov, S.Ibrohimov, S.Usmonov, S.Akobirov, A.Hojiyev, R.Doniyorov, H.Dadaboyev, A.Madvaliyev, M.Abdiyevlarning izlanishlarini terminologiya sohasida olib borilgan samarali ishlar sifatida qayd etish mumkin⁸.

Bobning navbatdagi bo'limi "**Badiiy asarda termin qo'llash zarurati**" deb nomlanadi. Bo'limda badiiy nutqda yozuvchi yoki shoir tomonidan terminning qanday maqsadda qo'llanishi xususida so'z yuritilgan.

Ba'zi tadqiqotchilar badiiy uslubda terminlarni qo'llashni noo'rin, ortiqcha, ulardan foydalanish badiiy asar tilini murakkablashtiradi, deb hisoblashadi. Biroq so'z san'atida nima ishlatilganligi emas, balki uning qanday maqsadda qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Termin ham boshqa birliklar kabi badiiy asarda ma'lum bir zarurat natijasida qo'llanadi. Chunki badiiy asarda xarakter va mavzu uyg'unligini hosil qilishda til birliklaridan o'rinli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda yozuvchining asosiy maqsadi o'quvchi tomonidan asar tilining psixologik jihatdan sodda tushunilishidir. Boshqa tomondan, terminlarning ilmiy,

⁷ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/termin-uz/>

⁸ Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. I. – Тошкент: Фан, 1956; Ақобиров С.Ф. Тил ва терминология. – Тошкент, 1968; Шу муаллиф. Терминология ишнинг мазмуни ва вазифалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1964. № 3. – Б. 31-38; Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977; Шу муаллиф. Ўзбек тилининг илмий-техникавий терминлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1979; Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари. Ахборот. 11-12-чиқарув. – Тошкент: Фан, 1996; Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017; Абдиев М. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-хунарлари материаллари асосида): Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б.60.

tarixiy, siyosiy ko‘rinishlarga egaligi yozuvchiga davr muhitini ochib berishda qo‘l keladi.

Terminlar – ma’lum bir fanga tegishli bo‘lib, muayyan hududda istiqomat qiluvchi xalqning turmush tarzi bilan bog‘liq holda shakllanadi. Binobarin, har qanday janrda asar yozgan yozuvchi terminni alohida e’tibor bilan tanlaydi, aniq lingvistik faktlarga tayanadi. Badiiy uslubda termin tanlashda ikkita muhim jihat mavjud:

1. Mazmun va maqsadga muvofiq termin tanlash.
2. Terminning asarda joylashish o‘rnini to‘g‘ri belgilash.

Ushbu bosqichlarni amalga oshirish muallif kommunikativ strategiyasining asosini tashkil qiladi. U kommunikativ strategiyaga asoslanib, qo‘llanilayotgan til birliklarining vazifalari va ularning matndagi rolini belgilaydi.

Bo‘limda H.Dadaboyev, Z.Xolmonova, H.Shamsiddinov, D.Jamoliddinova kabi tilshunoslarning “Devonu lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig” kabi yozma manbalar va shuningdek, mustaqillik yillarida yaratilgan O.Yoqubov, T.Malik, O‘.Hoshimov kabi yozuvchilarning asarlarida qo‘llangan terminlarning mavzuiy guruhlari, semantik tabiati, etimologik, lingvopoetik, lingvokulturologik tahlilini yoritishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlariga ham murojaat qilingan.

Birinchi bobning uchinchi bo‘limi **“O‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida Sadridin Ayniy asarlarining o‘rganilishi”** masalasi tavsifiga bag‘ishlangan. Mazkur bo‘limda Sadridin Ayniy asarlari til xususiyatlarining o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida o‘rganilishi haqida so‘z yuritiladi. Xususan, M.Qo‘shjonov, B.Valixo‘jayev kabi olimlarning o‘zbek adabiyotshunosligida Sadridin Ayniy asarlari badiiyati haqidagi, S.Yatimov, X.Xuseynov, M.Davronova, R.Jumayev kabi olimlarning yozuvchi asarlari tilini o‘rganishdagi nazariy xulosalari keltirilib, ularga munosabat bildirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sadridin Ayniy “Sudxo‘rning o‘limi” povestida qo‘llangan terminlarning mavzuiy guruhlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida povest tarkibidagi terminlarning har bir mavzuiy guruhlari alohida tahlilga tortilgan. Bobda har bir mavzuiy guruhga mansub terminlarning o‘ziga xos jihatlari xususida fikr yuritiladi.

Bobning **“Siyosiy-tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohaga doir terminlar”** deb nomlangan birinchi bo‘limida povestda siyosiy-tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohaga oid terminlar yozuvchi yashagan davr taqozosi bilan kiritilgani, XX asr boshlarida Turkistonda mavjud davlat boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlarni aks ettirish ehtiyoji tufayli terminlar povest tarkibiga kiritilgani alohida ta’kidlanadi.

“Sudxo‘rning o‘limi” povestining leksik tizimi rang-barang bo‘lib, unda siyosiy-tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohaga oid terminlar katta o‘rin egallaydi. Bo‘limda ularning o‘ziga xos uslubiy-semantik xususiyatlari ikkiga ajratib tahlil qilingan:

- a) siyosiy-tarixiy terminlar;
- b) ijtimoiy-iqtisodiy sohaga oid terminlar.

Povestda davlat boshqaruvi va siyosat tizimiga oid ijtimoiy terminlar, asosan, o‘sha davrga oid leksemalarning uslubiy-semantik xususiyatlarini qamrab olgan.

Povestda davlat boshqaruviga oid *noib, oqsoqol, mirshab, arbob, qozi kalon, notarius, shar'iy xat, tilmoch, knyaz* kabi siyosiy terminlar semantik jihatdan tahlil qilingan. Asarning juda ko'p o'rinlarida yozuvchi Qori Ishkambaning tashqi ko'rinishi, fe'l-atvorini kitobxon ko'z o'ngida jonlantirish uchun asosiy pragmatik yukni terminlarga yuklagan, shu orqali qahramonning xarakteri va nutqining o'ziga xos xususiyatlarini ochib bergan. Adib *vasiqa, muhr, dekret, tilxat* kabi siyosiy-tarixiy terminlardan muvaffaqiyatli foydalanib, ularni badiiy dialogik nutqqa olib kirgan.

XX asr boshlarida Turkistonda mavjud davlat boshqaruv tizimida *mirshab* lavozimi mavjud bo'lgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *mirshab* leksemasi ko'p ma'noli so'z sifatida quyidagicha izohlangan: *Mirshab* [a. – boshliq; hukmdor – kecha, tun: tungi qorovul boshlig'i] 1 tar. O'rta Osiyo xonliklarida tungi shahar soqchisi va ularning boshlig'i; 2. s. t. Militsioner⁹.

Muhammad Yahyoxon Xo'qandiyning "Mir"lar kim bo'lgan edi?" nomli maqolasida tarkibida *mir* qismi bo'lgan tarixiy so'zlar haqida shunday fikrlar mavjud: "Tilimizdagi talaffuz shunday bir qudratli kuchki, u ifodani osonlashtirish uchun ko'pgina atama, so'z hamda istilohlarni ixchamlashtirib, qisqartirib, mahalliy lahjaga, shart-sharoitga, boshqa tillarda aytishga moslab yuboradi. Shu tariqa, arab bo'lmagan xalqlarda "amir" so'zi qisqartirilib, "mir" tarzida talaffuz qilinadigan bo'ldi. Demak, "mir" – "amir"ning qisqartirilgan shakli bo'lib, quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi: Murakkab tarkibli so'z bo'laklarida "mutasaddi", "boshliq", "boshqaruvchi" ma'nolarida keladi, masalan: Mirasad – forsiyda "sherlar (arslonlar) amiri" degan ma'noni anglatib, aslida jamoat tartibini saqlovchi qism boshlig'i mansabi nomidir. **Mirshab** (miri shab) – arab tilida (mir – hukmdor va shab – tun) – tun amiri ma'nosini beradi. *Mirshab* – O'rta Osiyo xonliklarida ma'muriy lavozim; tungi shahar soqchisi. *Mirshabboshi* – kichik shaharlarda shahar *mirshablari*, katta shaharlarda daha *mirshablari* boshlig'i"¹⁰.

Qissada *mirshab* ma'muriy lavozimi shunday mahorat bilan tasvirlanganki, shahar aholisi ulardan juda qo'rqqan. Kechalari *mirshablarning* ko'chalarda tartibni saqlash maqsadida tonggacha xizmat qilishi tasviri fikrimizni tasdiqlaydi: *Ko'chada hech bir jon asari, hech qanday tovush va harakat yo'q, qorning shivirlashidan ovoz eshitilmas edi. Faqat shu orada g'arb tomondan kelayotgan mirshabning dovil sasi eshitildi (Sudxo'ring o'limi, 52-bet).*

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, Sadriddin Ayniy povestda terminlarni shunchaki qo'llamaydi, balki ayrim o'rinlarda qavs ichida yoki fikrning davomi sifatida ularga izoh ham keltirib o'tadi. Masalan, *mirshab* terminini qo'llash barobarida Buxoro *mirshablariga* xos alohida xususiyat haqida ham ma'lumot berib o'tadi: Buxoro **mirshablarining** odati - o'g'ridan qochmoq, to'g'rini tutmoq edi. Agar qochsak, bizning to'g'riligimizni bilib, albatta, quvib tutarlar, agar qochmasak, *mirshab* bilan yuzma-yuz kelib, o'z-o'zimizdan qo'lga tushar edik (52-bet).

⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. II том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 600.

¹⁰ <https://hidoyat.uz/60830>

Povestda ijtimoiy-iqtisodiy sohaga doir *bank, sudxo‘r, tanga, tiyin, pul, mayda, direktor, sinish (bankrot), foiz, “Soedinyonniy bank”, “Russo-Kitayskiy (Aziatskiy) bank”, mablag‘, sinmoq, kassir, naqd pul, qopcha, kontora, tilla, qog‘oz aqcha, oltin pul, kumush pul, qimmatli ashyo, sariq chaqa, nafaqa, omonat, hisob cho‘ti* kabi terminlar uchraydi.

Asarning bosh qahramoni Qori Ishkamba juda xasis, ziqna, yebto‘ymas, ochofat odam. Foizga pul berish musulmonchilikda gunoh hisoblanadi, ammo u gunohdan ham qo‘rqmay, oddiy xalqqa pul berib katta daromad oladi. Pullari juda ko‘payib ketgach, ularni qayerda saqlashni ham bilmay qoladi. Avval uyida, so‘ngra banklarda saqlaydi. Bir bankning yopilib ketishidan qo‘rqqach, pullarini boshqa bankka olib boradi. Mana shu jarayonda ijodkor bank va unga oid bir qancha terminlardan mahorat bilan foydalangan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bank terminiga shunday ta’rif berilgan: **Bank** [fr. banque, ital. banco – sarrof peshtaxtasi, kursisi]. Vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini to‘plash, korxonalarga kredit (qarz) berish, naqd pulsiz hisob-kitob qilish, kredit mablag‘larini muomalaga chiqarish va sh.k. bilan shug‘ullanuvchi kredit-moliya muassasasi¹¹.

“Iqtisodiy terminlarning izohli lug‘ati”da esa quyidagi ta’rif mavjud: Bank (lot. “ansa” – sarrof peshtaxtasi, kursisi) – bank hisob varaqlarini ochish va yuritish, to‘lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag‘larini jalb etish, o‘z nomidan kreditlar berish bo‘yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxs¹².

Qissada eng ko‘p qo‘llangan terminlardan biri, shubhasiz, bank terminidir. Masalan: *Shu vaqt bank xodimlarining choy ichish vaqtlari, agar biroz kechiksam choydan qolaman (10-bet).*

Qissada bir gap tarkibida bir nechta iqtisodiy terminlarning ketma-ket qo‘llanishini uchratish mumkin: *Telefon simlarini uzdilar, kassirlardan sandiqlarning kalitlarini olib, ular ichidagi naqd pul va boshqa qimmatli narsalarni oldilar va bankning pul soladigan qopchalariga joyladilar va bu qopchalarni bo‘sh qopchiqqa tiqib ko‘tardilar (149-bet).*

Bu gapdagi *kassir, naqd pul, bank* kabi leksik birliklar iqtisodiy terminlardir.

Bobning “**Povestda qo‘llangan kasb-hunarga oid terminlar**” deb nomlangan navbatdagi bo‘limida XX asr boshlarida o‘lkamizda mavjud bo‘lgan 30 ga yaqin turli xil kasb-hunarga oid terminlar tahlilga tortilgan.

Asar matnida Buxoro amirligining XX asr boshlaridagi hayotida mavjud bo‘lgan quyidagi kasb-hunarga oid terminlar qo‘llanilgan: *novvoy, sartarosh, chinnifurush, bazzoz, do‘kondor, sandiqfurush, do‘ppifurush, attor, choyfurush, saroybon, hunarmand, dutorchi, hofiz, qozonfurush, meshkobchi, savdogar, chayqovchi, tuzfurush, ranguborfurush, poyabzalfurush, shonatarosh, samovarchi, sayis, otboqar, maymunboz* kabi.

Povest bosh qahramoni Qori Ishkambaning hayoti, asosan, ko‘chada (u umuman o‘z uyidan ovqatlanmaydi), bozorda kechgani sabab povestda savdo

¹¹Ўзбек тилининг изохли луғати. Беш жилдлик. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 159.

¹² Mustafakulov Sh., Raximberdiyev O., Egamberdiyeva M. Iqtisodiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. – B. 489.

qiladigan kasbga oid ko‘plab terminlarni uchratamiz. Yozuvchi xalq tilida mavjud so‘zlarni asar bosh qahramonlarining ismiga metaforizatsiya asosida ko‘chirgan, o‘zining maqsadini shu orqali ko‘rsatishga harakat qilgan. Masalan, asar qahramonlaridan biri Rahimi Qand o‘zi yaxshigina musiqachi bo‘lsa ham, tirikchilik vajidan bozorda shirinliklar sotadi, kasbi tufayli uning ismiga Qand so‘zi qo‘shib aytiladi: *Uning ko‘pincha xaridori bosh yalang, oyoq yalang, boqimsiz qolgan ko‘cha bolalari edi. Ular goho «xo‘jayin»ning ko‘zini chalg‘itib, bu “mollar”ning bir qismini changallab olib qochar ham edilar. Uning mana shu “kasbi” munosabati bilan Buxoro xalqi uning nomiga “qand” so‘zini qo‘shib Rahimi Qand der edilar (27-bet).*

Xalq tilida **lungi** so‘zi mavjud. Bu so‘zning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagi ma’nolarni ifodalashi ko‘rsatilgan: *Lungi [f. – bel va songa o‘raluvchi mato parchasi]. 1. Hammomga kirganda, beldan pastni berkitish uchun bog‘lanadigan mato. 2. esk. Sartaroshlikda soch-soqol oldiruvchi kishining ko‘ksiga tutiladigan sochiq. 3. shv. Sochiq, piyola sochiq. 4. Qoziq lungi - yosh kelinchakning uyini yasatishda qoziqqa ilib qo‘yiladigan, kashta tikilgan uzun sochiq*¹³.

Povestda bu so‘z “sartaroshlikda soch-soqol oldiruvchi kishining ko‘ksiga tutiladigan sochiq” ma’nosida qo‘llangan: *Lekin sartarosh bunga yo‘l qo‘ymadi va chaqqonlik bilan qo‘lidagi ustara va qayroqni oyna oldidagi javon ustiga qo‘ydidan, sallani ikki qo‘llab Qori Ishkambaning qo‘lidan ola turib:*

- Sallangiz shunday katta va og‘irki, agar u yerga ilsangiz, qoziq sinib, lungilar yerga tushib, tuproqqa belangan bo‘lur edi, – dedi va sallani supacha ustiga qo‘ydi (7-bet).

Yana bir termin – *jomashov* “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bir ma’noli so‘z sifatida izohlangan: *Jomashov [f. - (kir) yuvadigan idish] Kir yuvadigan tog‘ora*¹⁴.

– Sizning sallangiz tuproqqa tushsa hech bir zararlanmas edi, – dedi sartarosh, – ko‘pdan beri jomashov yuzini ko‘rmagan bo‘lsa kerakki, tuproqdan ham farqsizroq holga kelgan.

– Bunday katta sallani haftada bir jomashovga solish mumkin emas, – dedi Qori Ishkamba, – u holda sovunning uyi kuyadi. – Nega bo‘lmasa kichikroq qilmaysiz? – Kichikroq bo‘lsa-ku, doka ham ozroq ketadi, sovun ham ko‘p sarf bo‘lmaydi, – dedi sartarosh (8-bet).

Ikkinchi bobning so‘nggi bo‘limi **“Povestda qo‘llangan diniy terminlar tahlili”** deb nomlangan. Mazkur bo‘limda S.Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida qo‘llangan terminlarning semantikasi diniy terminlar misolida tahlil qilindi. Ma’lumki, o‘zbek tilida diniy terminlar, xususan, islomiy-diniy masalalar ham sistema sifatida bir qator o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilgan.

“Sudxo‘rning o‘limi” qissasida quyidagi diniy terminlarni uchratish mumkin: *shayton, machit, shayx, sadaqa, kofir, xudoyi, qozi kalon, tobut, sha‘filik, joynamoz, murid, xonaqoh, azon, peshin namozi, yirtish, so‘fi, duo, mufti, mudarris, qozi kalon, masjid, oxund, tahoratxona, sha‘riy boy, bomdod, nazr,*

¹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 510.

¹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 102.

nazrxo'r, shakkok, tasbeh kabi. Til lugʻat tarkibining boyishida ichki manba imkoniyatlari gʻoyat muhim. Dunyoda hech bir til yoʻqki, u boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirmagan boʻlsin. Qissada qoʻllangan diniy terminlar arabcha lugʻaviy birliklardir. Ularning koʻpchiligi milliy koloritni saqlagan holda tarjimasiz qoʻllangan.

Maʼlumki, diniy terminlarda islom dini qonuniyatlari, arab xalqining moddiy va maʼnaviy hayoti, shu xalqning oʻziga xos udumlari, urf-odatlar oʻz aksini topadi. Qissada yuqoridagi eʼtiqodga koʻra nomlanishning birinchi toifasiga mansub *soʻfi, shayx, qozi kalon, mufti, mudarris, oxund* kabi arab tilidan oʻzlashgan shaxs otlari asosida shakllangan diniy terminlar islom dinida mavjud boʻlgan boshqaruv tizimi vakillari, xon saroyidagi mansab va unvon nomlarini ifodalash maqsadida qoʻllangan. Ikkinchi toifaga, yaʼni musulmon boʻlmagan termin sifatida qissada *kofir, shakkok* leksemalari qoʻshtirnoqqa olinib qoʻllangan: *Shayxlarga va ularning "karomatlari"ga ishonmaydigan odamlar bilan "shakkok", "kofir" deb oshnalik qilmas edi (32-bet).*

Qissada qoʻllangan diniy terminlardan biri – *sadaqa* oʻzbek tiliga arab tilidan oʻzlashgan. *Sadaqa* termini oʻzbek tilida *sadaqa*, qirgʻiz tilida *sadagʻa*, qozoq tilida *sadagʻa*, qoraqalpoq tilida *sadaqa*, uygʻur tilida *sədikə*, turkman tilida *sadaga/sadaka* tarzida qoʻllanadi. Mazkur termin "Tojik tilining izohli lugʻati" da "faqirlarga va pulsizlarga beriladigan pul yoki boshqa narsa" maʼnosida qoʻllanishi koʻrsatilgan [FZT, II, 174]. "Oʻzbek tilining izohli lugʻati"da esa mazkur termin uch maʼnoli soʻz sifatida berilgan: 1. Tilanchiga, muhtojlarga beriladigan xayr-ehson. 2. Xudo yoʻliga, aziz-avliyolarga ulardan najot istab qilinadigan ehson; qurbonlik. 3. Oluvchi nazarida *sadaqa* boʻlib tuyuladigan xayr-ehson, pul [OʻTIL. III, 14]. P.Shamsiyev, S.Ibrohimovlarning "Navoiy asarlari lugʻati"da *sadaqa* termini *saddaqa* tarzida keltirilib, *toʻgʻri, rost, adolatli, haqiqat* maʼnolarini anglatishi koʻrsatilgan [NAL, 540].

Dissertatsiyaning "**Sadriddin Ayniyning "Sudxoʻrning oʻlimi" povestidagi terminlarning genetik, tarkibiy-mazmuniy xususiyatlari**" deb nomlanuvchi uchinchi bobida povest tarkibidagi terminlar oʻz qatlam va oʻzlashgan qatlamga ajratilib, mazkur terminlarning genetik asoslari aniqlangan hamda ularning tarkibiy-mazmuniy tahlili amalga oshirilgan.

Bobning "**Sadriddin Ayniyning "Sudxoʻrning oʻlimi" povestida qoʻllangan oʻz qatlam terminlar**"ga oid boʻlimida oʻzbek tilining oʻz qatlamiga oid boʻlgan terminlar, ularning til tizimida tutgan oʻrni aniqlanib, alohida taʼkidlanadi.

Sadriddin Ayniyning "Sudxoʻrning oʻlimi" qissasida qoʻllangan oʻzbekcha terminlar quyidagi mavzu guruhlariga oid:

- 1) mansab va lavozimni ifodalovchi terminlar: *oqsoqol, otboqar, otliq*;
- 2) tabiat hodisalariga oid terminlar: *qirov, qor*;
- 3) savdo-sotiq terminlari: *sinish (bankrot), aqcha, chaqa, shirinkoma*;
- 4) dehqonchilik va hunarmandchilikka oid terminlar: *qayroq, qoziq, qaychi, ketmon*;
- 5) kiyim-kechak nomlarini anglatuvchi terminlar: *mahsi, kigiz, choʻntak*;

6) inson tana a'zolari nomlarini bildiruvchi terminlar: *ko'z, qosh, yuz, bosh, bo'y, soch, soqol, og'iz*;

7) xo'jalik qurollari terminlari: *pilik*;

8) harbiy terminlar: *soqchi, qushbegi, yaroq, miltiq, yasovul, qorovul, galabotur*;

9) oziq-ovqat va ichimlik nomlari: *yog', dog'lamoq, qovurma, chuchvara, bo'g'irsoq, qazi, o'choq, o'tin, nisholda*;

9) musiqa o'ld terminlar: *ashula, childirma*.

Asarda qimor o'yini mikrosistemasida *cho'tal, oshiq, chikka, pukka, olchi, qarta, qimorxona, qimorboz, qimorbozlik* kabi terminlar qo'llangan. Mikrosistema tarkibidagi *cho'tal, chikka* terminlari o'zbekcha so'zlardir.

Povestda shaxsning mansabi, kasb-koriga oid *oqsoqol* termini faol qo'llangan. O'TILda oqsoqol terminining 6 ta ma'nosi qayd etilgan: 1. Soch-soqoli oqargan keksa odam; mo'ysafid. 2. Ilgarigi davrda bir yoki bir necha mahalla yoki qishloqqa boshliq bo'lgan mahalliy amaldor. 3. Hozirgi kunda: qishloq fuqarolar yig'inlari va shaharlar mahalla qo'mitalari raisi. 4. *ko'chma*. Guruh yoki sinf boshlig'i. 5. *ko'chma*. Biror sohada ko'p ishlagan, mehnati singgan keksa kishi; rahbar. 6. Keksalarga yoki ulug' kishilarga nisbatan o'z tengqurlari tomonidan ishlatiladigan murojaat shakli.

Povestda bu termin yuqorida ko'rsatilgan ikkinchi ma'noda, ya'ni kichik ovul, qishloqlarga raislik qiluvchi mahalliy amaldor ma'nosida qo'llangan: *Sangsabz qishlog'ining oqsoqoli Arbob Ro'zi o'z yeri yonidagi yerlarimni qo'lga kirgizish uchun ustimdan bir janjal chiqardi. Qishlog'imizning oqsoqoli Arbob Hamid ham unga yon bosdi (67-bet)*.

